

Dupli Checker Plagiarism Report

Originality Report

 46.67%	 53.33%	890	8325
Plagiarized Content	Unique Content	Words	Characters

Primary Sources

1	https://new2.telemetr.io/refresh/ch...	 1.33%
2	https://lex.uz/m/acts/-111189	 2.67%
3	https://www.stat.uz/uploads/docs/...	 1.33%
4	https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/n...	 5.33%
5	https://kun.uz/uz/news/2018/04/14...	 1.33%
6	https://hozir.org/reja-yuridik-shax...	 1.33%

7	http://fayllar.org/andijon-qishloq-...	 1.33%
8	http://hozir.org/ozbekiston-respubl...	 2.67%
9	https://hozir.org/yuridik-shaxs-tus...	 1.33%
10	https://e-library.namdu.uz/Naman...	 1.33%
11	https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/n...	 2.67%
12	https://lex.uz/acts/-111189	 2.67%
13	https://fayllar.org/andijon-qishloq...	 2.67%
14	http://kompy.info/toshkent-davlat...	 1.33%
15	https://www.yumpu.com/xx/docu...	 1.33%
16	http://fayllar.org/1-mavzu-ekologi...	 1.33%

17	http://www.hozir.org/reja-yuridik-s... ... majburiyatlarga ega bo'lish va uni bajarish, da'vogar hamda javobgar bo'lish layoqatidir. Yuridik shaxs o'z ta'sis hujjatlari (ustavi, nizomi yoki ta'sis ...		1.33%
18	WEBuning muassislari (ishtirokchil... WEBuning muassislari (ishtirokchilar)ning yoki ta'sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq, shu jumladan yuridik...		1.33%
19	https://teletype.in/@termiz_shaha... Jul 31, 2023 — ... shaxsning amal qilish muddati tugashi, uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadga erishilganligi munosabati bilan yoki yuridik shaxsni tashkil ...		2.67%
20	https://lex.uz/docs/-111189?ONDATE... ... erishilganligi munosabati bilan yoki yuridik shaxsni tashkil qilish chog'ida qonunchilik buzilishiga yo'l qo'yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni ...		2.67%
21	https://hozir.org/ozbekiston-respu... shaxsni tashkil qilish chog'ida qonunchilik buzilishiga yo'l qo'yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo'lmasa, sud yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazishni...		1.33%
22	WEBfaoliyat litsenziyasiz, faoliyat (... WEBfaoliyat litsenziyasiz, faoliyat (harakatlar) ruxsatnomasiz yoxud vakolatli organni xabardor qilmasdan amalga oshirilgan yoki qonunda taqiqlangan...		1.33%
23	https://lex.uz/acts/-4641154 "moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilmaganligi sababli belgilangan tartibda harakatsiz rejimga o'tkazilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida faoliyat ...		2.67%
24	https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/n... ... ta'sis hujjatlari bilan uni tugatishga vakil qilingan organ zimmasiga yuridik shaxsni tugatishni amalga oshirish vazifasi yuklatilishi mumkin. Bekobod ...		1.33%

Content

Yuridik shaxslar, ularning belgilari, tashkil etilishi, faoliyati va turlari. Bozorova Mohlaroyim Siroj qizi O'zMU "Yurisprudensiya: biznes huquqi" yo'naliishi 2-bosqich talabasi Ilmiy rahbar: Rahimjonov Akmaljon Baxromjon o'g'li E-mail: akmaljonrakhimjonov@gmail.com Orcid: 0009-0003-9781-291X Annotatsiya: Mazkur maqlolada fuqarolik huquqining muhim subyekti hisoblangan yuridik shaxslarning vujudga kelish asoslari, faoliyatining asosiy yo`nalishlari, muomala va fuqarolik-huquqiy layoqati, turlari va tugatilishi to`g`risida so`z boradi. Kalit so`zlar: Fuqarolik huquqi, mulk, xo'jalik yuritish, majburiyat, operativ boshqaruv, mulkiy huquq, shaxsiy

nomulkiy huquq, yuridik shaxs, balans, smeta, tijorat, notijorat, vorislik huquqi, fuqarolik sudi, hakamlik sudi, xo'jalik yuritish, operativ boshqaruv, jismoniy shaxslar, jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond, muassasa, xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona, ta'sis hujjatlari, litsenziyasiz, ruxsatnomasiz, da'vogar, javobgar. Fuqarolik huquqi subyektlari orasida asosiy o'rin egallagan yuridik shaxslarga oid masalalar dolzar hisoblanadi. Shu asnoda aytish mumkinki, ular bilan bog`liq ko`plab munosabatlarga huquqiy asos shakllantirilgan va yuridik tartibga solingen. O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol- mulkka ega bo`lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo`la oladigan va ularni amalgalashira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo`la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi¹. 1 <https:// wikipedia.org> Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo`lishlari kerak². Yuqoridagi ta`rifdan xulosa qilish mumkinki, har qanday tashkilot ham yuridik shaxs hisoblanavermaydi, lekin har qanday yuridik shaxs tashkilot deb atalishi mumkin bo`ladi. Xususan, tashkilotlar o'z ichki belgisiga ko`ra yuridik shaxs bo`ladi, ya`ni tashkilotlar quyidagi zaruriy belgilarga ega bo`lgan taqdirdagina yuridikshaxs maqomiga ega bo`ladilar: 1. Tashkiliy birlik (yuridik shaxsning huquq subyekti sifatida tashkil bo`lganligini, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqaruv organlari va bo`linmalari orqali muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo`lishini bildiradi); 2. Mulkiy mustaqillik (xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari, jamoat tashkilotlari, ularning birlashmalari o'zlariga mulk huquqi asosida tegishli bo`lgan mulknini egallaydi); 3. Mustaqil mulkiy javobgarlik (yuridik shaxs o'z majburiyatlari yuzasidan o`ziga tegishli bo`lgan (davlat tashkiloti esa, o`ziga biriktirib qo'yilgan) mulki bilan javob beradi. Yuridik shaxs hisoblangan davlat tashkilotlarining majburiyatlari yuzasidan davlat javobgar bo`lmaydi, bu tashkilotlar ham davlat tashkilotlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo`lmaydilar); 4. Fuqarolik muomalasida o`z nomidan harakat qilish (yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o'z nomidan huquqiy munosabatlarda qatnashib, turli bitimlar tuza olishi, mulkiy va mulkiy xarakterda bo`limgan huquqlarga ega bo`la olishi va majburiyatlar vujudga keltira olishi, demakdir. Yuridik shaxs sudda va hakamlik sudida mustaqil ravishda da'vogar va javobgar bo`la oladi)³. Yuridik shaxslar yuqoridagi asosiy belgilardan tashqari o`zining tovar belgisi, firma nomi kabi individual belgilariha ham ega bo`ladilar. Qoidaga ko`ra, tijorat va notijorat yuridik shaxslar farqlanadi. Foya olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foya olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo`limgan 2 O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 39-modda 3 Fuqarolik huquqi darslik. Yuldashev.J.I., Borotov.M.X, Topildiyev.B.R va boshqalar. Toshkent 2017. 79-bet. tashkilot) yuridik shaxs bo`lishi mumkin. Tijoratchi tashkilot bo`lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin. Tijoratchi tashkilot bo`limgan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin⁴. Bundan tashqari, yuridik shaxslar jismoniy shaxslar kabi o`zlarining fuqarolik-huquqiy layoqati va muomala layoqatiga ega bo`ladilar, biroq fuqarolik huquqida fuqarolardan farqli o`laroq, yuridik shaxslarning huquq layoqatida tenglik mavjud emas, ularning har qaysi turi uchun har xil. U muayyan yuridik shaxsning paydo bo`lishida, uning ish maqsadlariga qarab, qonun, ustav yoki nizomlarida belgilanadi. Yuridik shaxslarning muomala layoqati huquq layoqati bilan bir vaqtida vujudga keladi. Shu bilan birga, yuridik shaxslarni muomalaga layoqatsiz deb topish mumkin emas. Yuridik shaxsning muomala layoqati O'z nomidan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda harakat qilishi, ya`ni bitimlar tuzish, majburiyatlarga ega bo`lish va uni bajarish, da'vogar hamda javobgar bo`lish layoqatidir⁵. Yuridik shaxslar quyidagi usullar orqali vujudga keladi: Buyruq (farmoyish) orqali; Murojaat qilish orqali; Ruxsat olish orqali;⁶ Yuridik shaxs quyidagi hollarda tugatilishi mumkin: 1. uning muassisasi (ishtirokchilari)ning yoki ta'sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq, shu jumladan yuridik shaxsning amal qilish muddati tugashi, uni tashkil etishdan ko`zlangan maqsadga erishilganligi munosabati bilan yoki yuridik shaxsni tashkil qilish chog'ida qonunchilik buzilishiga yo'l qo'yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf 4 O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. —T.: Adolat, 2007. 5 Fuqarolik huquqi darslik. Yuldashev.J.I., Borotov.M.X, Topildiyev.B.R va boshqalar. Toshkent 2017. 80-bet. 6 Fuqarolik huquqi. Darslik. Zokirov I.B —T: TDYUI, 2009 etib bo`lmasa, sud yuridik shaxsni ro`yxatdan o'tkazishni haqiqiy emas deb topganida; 2. faoliyat litsenziyasiz, faoliyat (harakatlar) ruxsatnomasiz yoxud vakolati organni xabardor qilmasdan amalga oshirilgan yoki qonunda taqiqlangan faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo`lsa, shuningdek boshqa hollarda sudning qaroriga ko`ra. 3. moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilmaganligi sababli belgilangan tartibda harakatsiz rejimga

o'tkazilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida faoliyat tiklanmagan taqdirda ro'yxatdan o'tkazuvchi organning qaroriga ko'ra, bundan nodavlat notijorat tashkilotlari mustasno. Sudning yuridik shaxsni tugatish to'g'risidagi qarorida uning muassislarini (ishtirokchilari) yoxud yuridik shaxsnинг ta'sis hujjatlari bilan uni tugatishga vakil qilingan organ zimmasiga yuridik shaxsni tugatishni amalga oshirish vazifasi yuklatilishi mumkin7. Yuridik shaxslar tugatilishi uning huquq va majburiyatlari yuzasidan huquqiy vorislikning bekor bo'lishiga olib keladi. Xulosa o'rnda shuni ta'kidlash kerakki, bozor munosabatlariga bosqichma- bosqich o'tish sharoitida iqtisodiyotning, jumladan, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, aksiyalar bozorida taraqqiyotning yetakchi manbaalari bo'lgan yuridik shaxslar yuksak va alohida o`ringa ega. 7 <https://lex.uz/docs/-180552>
Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati: 1) <https://wikipedia.org> 2) O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 39-modda 3) O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. —T.: Adolat, 2007. 4) Fuqarolik huquqi darslik. Yuldashev.J.I., Borotov.M.X, Topildiyev.B.R va boshqalar. Toshkent 2017. 5) Fuqarolik huquqi. Darslik. Zokirov I.B —T: TDYUI, 2009 6) <https://lex.uz/docs/-180552>